

**M. Qosimova**

Andijon davlat chet tillari instituti dotsenti

## **FRAZEOLOGIZMLARNING UMUMIY TALQINI**

Til va ma'naviyat mushtarakligi frazeologik birliklarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Frazeologik birliklar xalq turmush tarzi, urf-odatlarini, madaniyati, e'tiqodi, maishiy hayoti, dunyoqarashini, ayrim kishilarning xatti-harakatlari va fe'l-atvorini boshqa birliklarga nisbatan to'la va yorqin, turfa bo'yoqlarda aks ettirishi bilan xarakterlanadi.

Frazeologizmlarni o'rganish tarixi qariyb ikki asrga yaqin vaqtni o'z ichiga oladi. Olimlar til birligining milliy-madaniy xususiyatlarini turli terminlar bilan izohlaydilar. Ba'zi olimlar uning tilshunoslikda «madaniy komponent», «sotsial-madaniy sema», «madaniy koeffitsient», «milliy-madaniy ma'no» kabi atamalar bilan nomlanishini ta'kidlab o'tsalar, ayrimlari esa uni mazkur fanda «milliy xususiyat», «ma'noning milliy-madaniy ko'rinishining o'ziga xosligi», «milliy-madaniy izoh», «milliy-maxsus ma'no», «milliylikka xos bo'lgan sema», «ma'noning madaniy komponenti», «milliy-madaniy xoslik», «milliy-kolorit», «milliy-madaniy semantika», «milliy-madaniy jihat (spesifika)», «milliy tegishlilik semasi» kabi atamalar orqali nomlanishini qayd etib o'tganlar

Har bir badiiy yodgorlik muayyan bir davrda sodir bo'lgan voqea-hodisalarni tasvirlaydi. Shunga ko'ra, tarixiy mavzuda bitilgan asar hozirgi zamon kitobxonini xalq hayotining tarixi bilan tanishtiradi. Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asari ham chet el tadqiqotchilari tomonidan, ham o'zbek olimlari tomonidan yetarlicha o'rganilgan xamda uning bir nechta inglizcha tarjimalari mavjud. Endilikda esa «Boburnoma»ning o'zi emas, balki uning tarjimalari tarixi va tarjima adekvatlari o'rganilmoqda. Madaniyat millatning tilida, muomalasida, yurish-turishi, hayot tarzi, bayramlarida namoyon bo'lgani kabi «Boburnoma»ning ham leksikasida hech qaysi bir asarda ifodalanmagan frazeologik birliklar, maqollar, matallar, aforizmlar qo'llangan. Tarixiy asarlardagidagi frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlarini tahlil qilar ekan, bevosita asarning tarjimalarida lingvomadaniyatshunoslik aspektlar roli yorqinroq ifodalangan. Asarni ingliz tiliga o'girishda tarjimonlar asliyatga turlicha yondashib, imkon doirasida *uchub shunqor bo'ldining* muqobilini aks ettiradi. Asliyatdagi frazeologik birlik uch turdagi inglizcha tarjimalarda mazmuni hech qaysi birida yo'qolmay, balki – *precipitated from the top of the steep – jarning tepasidan juda yuqori tezlikda tushib, shunqor bo'ldi – took his flight to the other world – narigi dunyoga uchub ketdi, uchub – flew, shunqor bo'ldi – became a falcon – lochin bo'lib, uchub ketdi* tarzida qoyilmaqom tarzida berilib, tarjimadagi semantik aloqalar muallif nazarda tutgan hodisalarni ifodalashda tasviriy va obrazli chiqishini ta'minlashga xizmat qilgan.

Frazeologik birliklarni semantik-konseptual tahlil qilinar ekan, ushbu bobda konsept, konseptual va kognitiv kabi hozirgi zamon antropotsentrik tilshunosligining tushunchalariga xam izoh berilgan. Shuningdek, tarixiy asarlar tarjimasida qo'llanilgan frazeologik birliklarning semantik-konseptual jihatdan tahlil qilish jarayonida, tadqiqotchilarning “So'z” konseptidagi frazeologik birliklarga bag'ishlangan tahili diagrammasi xam berilgan.

Tarixiy asarlarning, jumladan, «Boburnoma»ning bir necha bor qilingan tarjimalari ham albatta tilning boyishiga va frazeologik birliklarning bir emas bir nechta muqobillari yaratilishiga sabab bo'ldi.

G'oyaviy mazmunga ko'ra xilma-xil va rang-barang mavzularni ifodalovchi proverbiallar serqirra hayotning barcha sohalarini qamrab olgan bo'lib, ular kundalik hayotdagi nutqimiz, qolaversa, mashhur adiblarimiz tomonidan yaratilgan durdona asarlarimizda keng qo'llaniladigan til birliklari bo'lib hisoblanadi. Har bir mamlakatning milliy urf-odatlarini, ma'naviyat va madaniyati, turmush tarzidan kelib chiqqan holda ularga semantik tomondan to'g'ri yondasha bilish talab etiladi.

Ingliz, fransuz va o'zbek tillarida frazeologik birliklarni boshqa tillar bilan qièsiy o'rganilishiga oid tadqiqotlar dunèning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari tomonidan o'rganilmoqda. Frazeologiya, frazeologik birliklar tadqiqida rus hamda bir-biriga qardosh bo'lmagan tillar doirasida V.V.Vinogradov, V.L.Arxañgelskiy, M.T.Tagiev, N.M.Shanskiy, A.V.Kunin, V.M.Mokienko, A.D.Rayxshteynlar o'rganib salmoqli hissa qo'shishgan. Sh.Almamatova, A.Nosirov, M.Xoliqova, K.Bozorboev, M.Vafoeva, H.Shamsiddinov hamda bir nechta olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

Tilshunoslik sohasida —tarixiy xotira tushunchasi, o'tmishdagi voqea-hodisalar, an'ana hamda odatlar frazeologiya tarkibida yaqqol namoèn bo'ladi. Chunki aynan frazeologik birliklar tarkibida —tarixiy xotiraga oid ma'lumotlar, tarixiy faktlarni insonlarga yetkazib berish osonroq hamda tushunarlidir. Har bir viloyat, har bir mamlakatda til sohiblarining og'zaki nutqida o'ziga xos metaforalar, iboralar, maqollar, idioma va matallar mavjud bo'lib, bularning eng samaralisi frazeologiya sohasida hisoblanadi.

Tarixiy frazeologik birliklarning aksariyat qismi boy va mashhur odamlarning nomlari bilan bog'liq. Bu jaraèni ijtimoiy psixologiya muammolarini o'rganuvchi tadqiqotchilar ham tasdiqlaydilar. Ularning fikricha —axborot olish uchun voqelik maqomiga ega bo'lishi va hokimiyat bilan bog'liq bo'lishi kerak, ana shundagina ma'lumotlar rivojlanadi hamda insonlar xotirasida muhrlanadi. Fransiyada tarixiy faktlar ham uzoq vaqt davomida insonlarning kiyimi va hashamatli unsurlar orqali ifodalangan.

Xalqning dunyoqarashini o'zida aks ettirgan, madaniyatning ajralmas qismi va tilning muhim qatlamini tashkil etuvchi, bebaho ma'naviy boylik sanalgan proverbiallar asrlar davomida hayotiy tajribalar asosida sayqallanib, turli vositalar bilan avlodlardan avlodlarga meros qilib qoldirilgan. Ularni boshqa xalqlarga tarjima orqali yetkazishda bunday ma'naviy boylikning sofliigi o'zgarmasligi lozim, aks holda ularning qadr-qimmatini pasayib boradi. Zero, o'zbek xalqining ilmiy va madaniy an'analarida qadim zamonlardan boshlab xalqning yuksak til madaniyatini namoyon etuvchi oltin sahifalar mavjud.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Алефиренко Н.Ф., Семененко Н.Н. Фразеология и паремиология. – М.: Наука, 2013. – С. 32.
2. Хожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – С. 124.
3. Раҳматуллаев Ш. Нуткимиз кўрки. – Тошкент, 1970. – Б. 56.
4. Алефиренко Н.Ф., Семененко Н.Н. Фразеология и паремиология. – М.: Наука, 2013. – С. 32.
5. Ларин Б.А. Очерки по фразеологии [Электронный ресурс] – Режим доступа: <http://www.philology.ru/linguistics2/larin-77d.ht>
6. Йўлдошев Б. Хозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филол. фанл. док...дисс. автореф. – Тошкент, 1993; Маматов А.

Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Филол. фан. док...дисс. автореф. – Тошкент, 2000.

7. Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. – М.: Слово, 2000. – С. 241.

8. Козырева Ю. В. Английская идиоматика на межъязыковом уровне // Журнал САХГУ, 2004, № 5 ([journal.sakhgu.ru/archive/2004-05-6](http://journal.sakhgu.ru/archive/2004-05-6)).

9. Маматов А.Э. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Тошкент, 1991. – 274 б.